

TEXNOLOGIYA FANINING YOSH AVLOD HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Asildinova Odina Maxammadjon qiz.i

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti talabasi.
Xayrulloeva Sarvinoz Rasuljon qizi*

Andijon Davlat Pedagogika Instituti talabasi.

Darveshaliyeva Mahfiratoy G'ayratjon qizi.

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti talabasi.
Mamajonova Guluzro Abdurashidovna dotsent.*

Andijon Davlat Pedagogika Instituti katta o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada texnologiya fanining o'quvchilar hayotidagi ahamiyati, zamonaviy kasblar bilan uzviy bog'liqligi haqida so'z yuritiladi

KALIT SO'ZLAR: ta'lim-tarbiya, Amaliy mashg'ulotlar, "Mahorat maktabi", IT, elektorenergetika, biotexnologiya,

KIRISH:

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish juda muhim hisoblanadi. Chunki tanlangan kasb har bir inson kelajagi bilan bog'liq hamda yashash tarziga ham ta'sir qiladi. Inson o'zi tanlagan kasb yoki hunaridan zavq olsa, qilgan ishidan mamnun bo'ladi. O'z kasbining ustasiga aylanadi, el e'tiboriga tushadi, baraka topadi. Kasb tanlashda maktabning o'rni beqiyos. Ilgari mehnat darsiga 2-3-darajali fan sifatida qaralardi. Amaliy mashg'ulotlar qog'oz-qalam, o'chirg'ich, tabiiy materiallar asosida o'tilardi. Endilikda bu fan "Texnologiya" deb nomlanib, darslar oliy malakali o'qituvchilar tomonidan o'tiladigan bo'ldi. 5—9-sinflarda o'quvchilar har yili 3-4 kasb bo'yicha o'qitiladi, ishlab chiqarish amaliyotida ishtirok etadi. Berilgan nazariy bilimlar amaliy darslar bilan mustahkamlanadi. Aytish lozimki, 8-9-sinflar uchun mehnat ta'limi bo'yicha ilgari aniq bir darslik yoki o'quv-uslubiy qo'llanma yo'q edi. Shu bois mazkur fan o'qituvchilari darslarni deyarli o'z bilganlaricha o'tishardi.

O'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan texnologiya fani metodologiyasini, texnologiya darslarida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni

amalga oshirish, texnologiya fanining o'quv meyoriy xujjatlarini tahlil qilish va qayta ishlash; texnologiya darslarini samarali o'qitish metodlaridan, dars shakllaridan foydalana olish; pedagogik va axborot texnologiyalar asosida darslarni tashkil qilish va o'tkazish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarini nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini pedagogik-psixologik bilimlarni maktab o'quvchilarida umummehnat, kasb tanlashga yo'llash va umumkasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida tadbqiq etish; pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish; texnologiya fani o'quv ustaxonalarini talab darajasida jixozlash va uni nazorat; maktablarda texnologiya darslarini o'qitishni samarali tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini shakillantirish vazifalarini bajaradi.

ASOSIY QISM

Texnologiya fanining asosiy vazifasi – pedagogik psixologik bilimlarni o'quvchilarda umummehnat va umumkasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida tadbqiq etish; pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish; mehnat ta'limini o'qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini o'rgatishdan iborat.

“Texnologiya” fani bo'yicha Sirdaryo viloyati “Mahorat maktabi”ning rahbari bo'lgan Zamira Sattorova yillar davomida dars ishlanmalarini jamlab bordi hamda 8-9-sinflar uchun “Ishlab chiqarish asoslari va kasb tanlashga yo'llash” degan dastlabki darslik nusxasini yaratdi. Bu ish 2013-yili respublika maktablari bo'yicha ommalashtirilib, mehnat ta'limi darsi shu asosda o'tilishi joriy qilindi. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazilgan darsliklar va o'quv-metodik komplekslarni ishlab chiqish uchun mualliflarni tanlab olish tanlovida sirdaryolik uch nafar muallim — Guliston shahridagi 8, Yangier shahridagi 6 va Mirzaobod tumanidagi 15-maktab o'qituvchilari Zamira Sattorova, Nazokat Abdusalimova va Nasiba Ahmedovalar

tomonidan 9-sinf o'quvchilari uchun yozilgan "Texnologiya" kitobi ma'qullanib, darslik sifatida chop etildi va 2019-2020-o'quv yilidan boshlab asosiy qo'llanma sifatida o'qitiladigan bo'ldi. Darslikda o'g'il bolalar uchun alohida, qizlar uchun alohida qismlar mavjud. O'g'il bolalar uchun mo'ljallangan "Texnologiya va dizayn yo'nalishi" bo'limida hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasi, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik, elektronika asoslari, kasb tanlashga yo'llash hamda ijodiy loyiha tanlash texnologiyasi boblari ajratilgan bo'lsa, qizlarga mo'ljallangan bo'limda ularning o'zlariga mos va zamonaviy yo'nalishlarga oid dars ishlanmalari hamda ma'lumotlar joy olgan. Axborot oqimi keskin ortgan davrda mustaqil fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, har qanday yangilikni o'rganishga erkin kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi va bu borada ta'limda yangi texnologiyalarning qo'llanishi, interaktiv usullardan keng foydalanish lozim bo'ladi. Texnologiya fani predmeti boshqa fanlardan umuman farq qiladi. Masalan, fizika yoki matematika fanlari o'n yillar davomida yangi bilimlar bilan boyitilib boriladi. Texnologiya fani bo'yicha esa har yili yangiliklar bor. Ishlab chiqarish sohasiga ko'plab yangi texnologiyalar joriy etiladi. Shuning uchun bu fan o'quvchilarni zamonaviy kasblarga o'qitish bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi kerak.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan yaqin kelajakda o'quvchilarni kasbiy ta'limga yo'naltirish maqsadida superustaxonalar, bolalar texnoparklari, "Kvantorium" va boshqa zamonaviy parklar ochish ko'zda tutilmoqda. O'quvchilar kompyuter va vibrostendlar bilan jihozlangan bu maskanlarda kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish bilan birga robo, kosmo, nano, bio, IT yo'nalishlarida ta'lim olish imkoniga ega bo'ladilar.

Masalan, mebel ishlab chiqarish bo'yicha dizayner bo'lmoqchimisiz? Marhamat, bolg'a va mixni chekkaga surib, material tanla, hisob-kitob qil. Mebelni plastikdan tayyorlamoqchimisiz? Bunda barcha detallarni 3D printeri tayyorlaydi. Yog'ochdan qilmoqchimisiz? Marhamat, raqamli dasturlangan boshqaruv stanogiga hisob-kitobingni kiritasan. mebeling tayyor. O'quvchilar shu tariqa

sanoat dizayni, nanotexnologiya, raqamli modellashtirish va ishlab chiqarish texnologiyalari, robototexnika, elektrotexnika, elektorenergetika, biotexnologiya, oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, “aqlli uy”, “buyumlar interneti” bilan tanishadilar. Bunda darslar nafaqat maktabda, balki kollej va texnikumlar, bolalar texnoparki, yoshlar ijodiy innovatsion markazlarida tashkil etiladi.

XULOSA

Ta'limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, bu vazifani bugungi kunda oliy ma'lumotli, yuksak professional mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar bajarmoqda. Ta'lim sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Qo'ysinov, H.S.Yakubova Mehnat ta'limi kasb tanlashga yo'llash fanidan laboratoriya mashg'ulotlari. Metodik qo'llanma. T.: Nizomiy nomidagi TDPU
2. N.A.Muslimov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.-T.: 2009,
3. O'.Q.Tolipov, D.Ro'ziyeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, “INNOVATSIYA-ZIYO” -2019
4. X.Sanaqulov va boshqalar. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. “Tafakkur bo'stoni” T.: 2015